



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 506-512 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONDA KICHIK INNOVATSION TADBIRKORLIKNI

#### RIVOJLANTIRISH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI MUAMMOLAR TAHLILI



Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich

Farg'ona politexnika instituti

"Menejment" kafedrası professori, i.f.n.

**Annotatsiya.** Maqola O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalarining ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada keltirilgan statistik ko'rsatkichlar mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish zaruriyatini, buning uchun kichik innovatsion korxonalarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish zarurligini isbotladi. Tadqiqot doirasida kichik innovatsion korxonalarini rivojlantirish xususiyatlari o'rganildi va kichik innovatsion korxonalar faoliyatining ayrim jihatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan, iqtisodiyot, kichik innovatsion korxonalar

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Islohotlarning rag'batlantirilishi tufayli real yalpi ichki mahsulot 2017-yildagi 4,5 foizga nisbatan 2023-yilda O'zbekistonning real yalpi ichki mahsuloti investitsiyalar, xususiy iste'mol va eksport hisobiga 6 foizga o'sdi.<sup>1</sup>

O'zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi inson rivojlanishi bo'yicha yuqori guruhdagi o'rtacha ko'rsatkichdan (0,727) va Yevropa va Markaziy Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan (0,771) past bo'lib qolsa-da, 2000-2022 yillar oralig'ida O'zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi 0,603 dan 0,727 gacha, ya'ni 20,6 foizga o'sdi. Bu davrda tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi 6,0 yilga, kutilayotgan o'qish yillari 1,2 yilga, o'rtacha ta'lim yillari esa 1,9 yilga o'zgargan. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 2000 yildan 2022 yilgacha taxminan 210,5 foizga o'zgargan<sup>2</sup>.

O'zbekistonning 2022 yil uchun Inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi 0,727 ni tashkil etadi, bu esa mamlakatni Inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha yuqori toifaga kiritib, 193 mamlakat va hudud ichida 106-o'rinni egallaydi.

Bu kabi iqtisodiy o'sish va ijobiy natijalarga qaramay, ishsizlik darajasi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Qayd etilishicha, mamlakatida 2023 yil yakuniga ko'ra ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/15/wb/>

<sup>2</sup> <https://hdr.undp.org/data-center/specific-country-data#/countries/UZB>

mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil etadi. Joriy yilda mehnat bozoriga yana 2,4 mln kishi kirib keladi<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, qashshoqlik darajasi hamon muammo tug'dirmoqda, o'tgan yil yakunida mamlakatda kambag'allik darajasi 3,1%ga pasayib, 11%ni tashkil etgan. Kambag'allikning pasayishi barcha viloyatlarda qayd etildi<sup>4</sup>. BMTning Taraqqiyot dasturi 2023-yil uchun O'zbekistonda kambag'allik indeksi bo'yicha hisobotini elon qildi. Hisobotda keltirilishicha, O'zbekistonda katta yoshdagi aholining taxminan 18,4 foizi (4,2 million nafar fuqaro) kambag'allik chegarasidan past darajada yashamoqda. Hisobotni tuzishda asos qilib olingan 34 ta indikator shunday xulosaga kelishga imkon bergan<sup>5</sup>.

Shuningdek, Jahon banki "O'zbekiston kambag'allikka barham berish yo'lida: xalqaro taqqoslash natijalari" deb nomlangan hisobotini e'lon qildi. Tahlilga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi sezilarli qisqarayotgan bo'lsa-da, aholi orasida iqtisodiy tengsizlik kuchayib borayotgani xavotirli ekanligini, daromadlar tengsizligining statistik ko'rsatkichi bo'lgan Jini koeffitsiyenti 2022-yildagi 0,31 dan 2023-yilda 0,35 gacha ko'tarildi. Agar tengsizlikning o'sishi bo'lmaganida, qashshoqlik 5,5 foiz punktga tushishi mumkin edi", — deya ma'lum qilgan Jahon banki<sup>6</sup>.

Nafaqat yuqoridagi kabi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etish, balki biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz<sup>7</sup>.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.N. Asaul [2], Blank I.[4], Zaxarov S.V.[5], Mazur Ye. [6], Muxamedyarov A.M.[7], Smagulova J.B. [8] kabi MDH iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari ishlab chiqarish kompleksidagi kichik va o'rta korxonalarda innovatsion o'zgarishlarning zamonaviy muammolariga bag'ishlangan. Shuningdek, innovatsiya muammolarini o'rganishga Oakey R.[9], Berry M.M.[10], Marc H.[11], Druker P.[12], Shumpeter Y.[11] kabi xorijiy tadqiqotchilar ham muhim xissa qo'shganligini ta'kidlab o'tish kerak. Bekmuxamedova B. U.[14], Allayarova M.K.[15], Kotov V.A.[16], Nasimov D.A. [17], Nazarova G.X.[18], Rayimberdieva O. R.[19], Tursunov B.[20] kabi maxalliy olimlar kichik innovatsion korxonalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy jihatlarini o'rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning vositaviy-uslubiy apparati tizimli yondashuv doirasida tadqiqotning umumilmiy uslublari: mantiqiy va vaziyatli tahlil, expert baholash, so'rovnoma, kuzatish, intervyu, guruhlash, taqqoslash kabi tahlil vositalarini qo'llashga asoslanadi. Ushbu vositalar tadqiqot olib borishning turli bosqichlarida turli kombinasiyalarda foydalaniladi, yakuniy natijalar, xulosalar va takliflarni ilmiy asoslanganligini ta'minlashga imkon beradi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy haqiqatda mamlakatda innovatsion faoliyatni jonlantirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va kelgusi rivojlanishi uchun sharoit yaratish, biznes rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish, shu

<sup>3</sup> <https://kun.uz/news/2024/03/05/ozbekistonda-ishsizlik-darajasi-kamaygani-malum-qilindi>

<sup>4</sup> <https://gov.uz/bv/news/view/5337/>

<sup>5</sup> <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/uzbekistan-pilot-multidimensional-poverty-index-report-2023>

<sup>6</sup> <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020

bilan birga yetakchilikni mustahkamlash va raqobatchilardan o'zib ketish, shuningdek, biznesning butun yo'nalishlarini iqtisodiy jihatdan amaliy bo'lmagan radikal innovatsiyalar joriy etilgan taqdirda sohaga zarar yetkazilishidan o'z vaqtida himoya qilish uchun ham kerakdir.

Innovatsiyani rivojlanishining xususiy biznesga, jamiyatga, umuman davlatga ta'sirining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- hayot sifatini yaxshilash;
- YaMM daromadlari va foydalarining o'sishi;
- aholi daromadlarining o'sishi;
- iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari;
- tengsizlikni kamaytirish;
- kichik va o'rta biznesning o'sish sur'atlarini tezlashtirish.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni kichik korxonalar innovatsion faoliyatini jonlantirish va innovatsion faolligini oshirishga yo'naltirilgan sharoitlarni yaratmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Kichik korxonalar innovatsion faol deb tan olinishi uchun u tugallangan innovatsiyalarga ega bo'lishi kerak, ya'ni bu o'z navbatida bozorga yangi (sezilarli darajada takomillashtirilgan) mahsulotlar, xizmatlar, innovatsiyalarni ishlab chiqarish (o'tkazish) usullarini ishlab chiqish va joriy etishni, shuningdek xo'jalik faoliyatiga joriy qilingan ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini nazarda tutadi.

Mamlakatimizdagi kichik innovatsion korxonalarining keyingi yillardagi innovatsion faolligining statistik ma'lumotlari, texnologik, tashkiliy yoki marketing innovatsiyalari kabi innovatsionlarni qo'llaganliklari sonining qisqarish tendentsiyasi kuzatilganligini ko'rsatadi. Jahon banki guruhi O'zbekistonning barcha hududlaridagi kichik, o'rta va yirik korxonalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi firmalarning atigi 23,2 foizi so'nggi uch yil ichida mahsulot innovatsiyalarini, 14,4 foizi esa texnologik innovatsiyalarni qo'llaganliklarini ko'rsatdi. Biroq, bu firmalarning atigi 5 foizi bu maqsad uchun 100 dollardan ortiq mablag' sarflagan. So'nggi uch yil ichida so'rovda qatnashgan firmalarning 10 foizi tashqi ilg'or tajribalarni qo'llagan, 13 foizi korxonalar ichidagi imkoniyatlardan foydalangan, 7 foizi innovatsiyalar uchun shartnoma asosida outsorsing qilgan.

Tahlillar ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi 2016 yildagi 10688,2 mlrd.so'mdan 2020 yilda 31142,8 mlrd.so'mga, innovatsiyalarga qilingan xarajatlar 2016 yildagi 2571,4 mlrd.so'mdan 2020 yilda 6830,0 mlrd.so'mga ortganligini ko'rsatmoqda.

Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni ham yillar davomida ortib bormoqda va 2020 yilda 1217 tani tashkil etayotgan bo'lsa, ulardan 1148 tasi texnologik innovatsiya, 37 tasi marketing innovatsiyasi, 32 tasi tashkiliy innovatsiyalardir.

2022 yilning 1- yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 528 929<sup>8</sup> ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar ulushi atigi 0,23 % ni tashkil etayotganligi ular innovatsiya faoliyatining sustligi va befarqligidan dalolat beradi.

Innovatsiya faoliyatining sustligi, innovatsiyaga bo'lgan ehtiyojning past darajasi mamlakatda korxonalar va tashkilotlar o'rtasida kuchli raqobatning mavjud emasligi, hamda boshqaruvda bozor tamoillaridan foydalanmaslik yoxud ularda moliyaviy imkoniyatlarning yetarli emasligi natijasidir.

Shuningdek, ishlab chiqarish va fan o'rtasidagi mukammal bog'liqlikning yo'qligi, olimlar tomonidan tadbirkorlarga nisbatan ishonchsizlik ham intellektual mulk ob'ektlarining tijoratlashtirilmagani sabablaridan biridir. Iqtisodiyotning innovatsiyalarga sustligi, befarqligi innovatsion soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi eng muhim to'siq hamdir.

2020 yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni 4290 ta yetgan, ulardan 4011 tasi texnologik, 202 tasi marketing, 77 tasi tashkiliy innovatsiyalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, o'rganish natijasida korxonalar va tashkilotlar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar ulushida asosiy ulushni texnologik innovatsiyalar tashkil etadi. Joriy qilingan innovatsiyalar tarkibida marketing va tashkiliy innovatsiyalar kabi innovatsion faoliyat turlariga yetarlicha e'tibor berilmagani aniqlandi, ular mos ravishda 4,7 va % 1,7 % ni tashkil etadi. Zero, bugungi kunda har qanday iqtisodiyot o'sish va rivojlanishining markazida yangi iste'mol qiymatini yaratish, moliyaviy natijalarni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkil qilish, ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida innovatsiyalardan faol foydalanish yotadi. Shu bilan birga, bu kabi yondashuv zamonaviy texnologik rivojlanishga mos kelmaydi va innovatsiyalar samaradorligiga bilvosita ta'sir qiladi, bu birinchi navbatda, kelgusida innovatsion mahsulotlar yaratish hajmining pasayishi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda innovatsion salohiyat mavjud, ammo uning rivojlanish darajasini xorijiy davlatlar bilan solishtirib bo'lmaydi. Buning ko'plab sabablari bor: qonunchilik bazasidan tortib, yangi mahsulot va xizmatlarni iste'molchilar tomonidan qabul qilishigacha.

Tadqiqot natijasida, O'zbekistonda kichik biznesning innovatsion faoliyatini faollashtirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi asosiy omillar aniqlandi.

1. Shu ma'noda innovatsion salohiyat o'sishi uchun innovatsion faoliyat infratuzilmasi, qoida tariqasida, texnoparklar, innovatsion biznes-inkubatorlar, innovatsion texnologiyalar markazlari, texnologiyalar transferi markazlari, konsalting, axborot va innovatsion faol kichik korxonalar turli xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar ham rivojlangan bo'lishi taqazo etiladi. Innovatsiya hamda KIK lar faolyatini qo'llab-quvvatlashning ushbu segmenti innovatsion jarayonning institutsional infratuzilmasi sifatida innovatsiyalarga yo'naltirilgan korxonalar faoliyatini tashkiliy, ta'lim, maslahat, axborot, moddiy-texnika, moliyaviy va boshqa qo'llab-quvvatlash institutlari to'plami tushunilishi kerak.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari

Shunday qilib, infratuzilma keng ma'noda innovatsion rivojlanishni bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha barcha muassasalar, tashkilotlar va korxonalar faoliyatini birlashtiradi. Мамлакатимизда эса, innovatsiyalar zanjirining to'liq siklining uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlashga qodir bo'lgan muvozanatli innovatsion infratuzilmaning (vositachilik, axborot, yuridik, bank va boshqa xizmatlar) zaif rivojlanishi, innovatsion mahsulotlar bozorlari haqida ma'lumotlarning etishmasligi, yangi texnologiyalar haqida ma'lumotlarning etishmasligi, axborot olishda yuqori darajadagi to'siqlarning mavjudligi ҳам КИК салоҳияти ўсишига тўсқинлик қилмоқда.

2. Bundan tashqari, o'rganish natijasi tadbirkorlar tomonidan yangi mahsulot va xizmatlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, marketing tadqiqotlari, tashkiliy kabi innovatsion faoliyat turlari bo'yicha yangiliklarni yaratishga yetarlicha e'tibor berilmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, kichik biznes uchun innovatsion faoliyatning ustuvor turi yangi mahsulot va xizmatlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish bo'lib, bu innovatsiyalarning "sifat" tomonini oshiradi va tadbirkorlarga raqobatchilarga nisbatan ma'lum afzalliklarni beradi. Бирок, innovatsion jarayonning noaniqlik va iqtisodiy riskning yuqori darajasi, yangiliklarning narx darajasi yuqoriligi ҳамда yangi tovarlarga (ishlar, xizmatlar) talabning yuqori to'lovga qobil bo'lmasligi ҳам yangi mahsulot va xizmatlarni tadqiq qilish va ishlab chiqishra тўсқинлик қилмоқда.

3. Korxonalarining innovatsion rivojlanishi ko'p jihatdan resurslar bilan ta'minlashga bog'liq bo'lib, bu o'zida innovatsion faoliyatning xar xil turlari va ko'rinishlariga haqiqiy xarajatlarni aks ettiradi. O'zbekistonda rivojlanish va innovatsiyalarga ichki xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 1 foizidan ham kam va 2/3 qismi davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Kichik biznes korxonalarining innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun o'z mablag'larining etishmasligi, venchur investitsiyalarini amalga oshirish mexanizmlari va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi каби сабаблар КИК фаолияти ва тараққиётига тўсқинлик қилмоқда.

Bu omillar kichik biznes sub'ektlarining innovatsion rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib, ularning resurs salohiyatidan to'liq foydalanishni qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda va xududlarda kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir:

1. Hozirgi vaqtda mintaqada nafaqat davlat sektori va davlat organlari uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qiladigan, balki xususiy sektor, milliy va xorijiy investorlarga yo'naltirilgan mamlakat miqyosida ilmiy-texnik va innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarurati mavjud.

2. Mamlakat miqyosida fan, ixtirolar, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlashda ularning texnologik darajasini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish.

3. Mamlakat miqyosida kichik biznesning innovatsion faolligini va muvozanatli innovatsion infratuzilmani oshirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishning dolzarb yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

4. Innovatsion infratuzilmalar faoliyatini jonlantirishda asosan ilmiy - tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilm va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, xududlardagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy

tadqiqot institutlari qoshida ixtisoslashtirilgan ilmiy - eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar, innovatsion biznes-inkubatorlar, innovatsion texnologiyalar markazlari, texnologiyalar transferi markazlari ochish, axborot berish, konsalting xizmatlari ko'rsatish tizimini yaratish vazifasini qo'yish kerak.

**Xulosa** qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik innovatsion korxonalar faoliyatini rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Xo'jalik yuritishning bunday shakli iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanishiga yordam beradi, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy muammolarning yechimini ta'minlaydi hamda aholi farovonligining o'sishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020. [www.president.uz](http://www.president.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021. [www.president.uz](http://www.president.uz).
3. Асаул А. Н. (2008) Модернизация экономики на основе технологических инноваций / А. Н. Асаул [и др.]. СПб.: АНО ИПЭВ, 606 с
4. Бланк И.А. Словарь-справочник Финансового менеджера. — К.: «Ника-Центр», 1998. — 480 с.
5. Захаров С.В. (2014) Классификация малых инновационных предприятий// вестник ИрГТУ.- №8 (91), 179-182
6. Мазур Е. (2005) Инновационное предпринимательство в структуре малого бизнеса в Украине // Экономика Украины. № 3. С. 36–41.
7. Мухамедьяров А.М. (2010) Инновационный менеджмент. М.: Инфра-М, 2008. 286 с. 2.
8. Бараненко С.П., Дудин М.Н., Лясников Н.В. Инновационный менеджмент. - М.: Центрполиграф.
9. Смагулова Ж.Б., Бисенова Р.А., Айдосова Б.Х. (2014) Роль малых инновационных предприятий в современной экономике // Современные наукоемкие технологии. №12-2. – С. 213-216.
10. Oakey R. (2003) Technical entrepreneurship in high technology small firms: some observations on the implications for management // Technovation. № 23 (8). P. 679–688.
11. Berry M.M.J. (2004) Technical entrepreneurship, strategic awareness and corporate transformation in small high-tech firms // Technovation.. № 16 (9). P. 487–498.
12. Marc H. (2000) New Product Strategy in Small High Technology Firms: A Pilot Study. Massachusetts institute of technology
13. Друкер Питер Ф. (2003) Практика менеджмента: пер. с англ. — М.: Вильямс, 2002. — 398 с.
14. Дж. Кей и С. Дейвис. Экономикс — Учебник / Дж. Кей, Издательство: ИНФРА-М, с. 236
15. Шумпетер Й. Теория экономического развития: Исследования
16. предпринимательской прибыли, капитала, кредита и цикла конъюнктуры. — М.: Прогресс, 1982.

17. Бекмухамедова, Б. У. (2017) Реализации инновационной стратегии на  
18. промышленных предприятиях Узбекистана// Молодой ученый. — № 25 (159). С.136-138. — URL: <https://moluch.ru/archive/159/43944/>.
19. Аллаярова М.К., Бозоров М.О. (2017) Основные направления инновационного развития экономики в Республике Узбекистан// Вопросы экономики и управления Международный научный журнал №2 (09), 17-18
20. Котов В.А. (2020) Новый этап взаимодействия малого бизнеса с центрами инновационного роста // Экономическое обозрение. — № 9 (249). — <https://review.uz/post/novy-etap-vzaimodeystviya-malogo-biznesa-s-centramiinnovacionnogo-rosta> 3
21. Насимов Д.А, Зикряев З.М., Хотамов М. (2013) Развитие инновационного предпринимательства в Республике Узбекистан. Проблемы и перспективы развития экономических систем в исследованиях студентов и молодых ученых пос.персиановский, 26–28 марта. Издательство: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Донской государственный аграрный университет"
22. Назарова Г.Х., Шермухамедов Б.У. (2017) Инновационное предпринимательство — движущая сила в развитии экономики Узбекистана// Вопросы экономики и управления Международный научный журнал №2 (09), 91-93
23. Райимбердиева, О. Р. (2016) Роль инновационных решений в экономическом росте страны / О. Р. Райимбердиева, О. Р. Умаралиев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. № 2 (106). — С. 575-578. — URL:<https://moluch.ru/archive/106/25290/>
24. Tursunov V. (2021) The role of industrial zones in ensuring the efficiency of activities in territorial competitiveness // Экономика и финансы (Узбекистан). № 4. Спецвыпуск. — [https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-industrial-zones-in-ensuring-the-efficiency](https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-industrial-zones-in-ensuring-the-efficiency-of-activities-in-territorial-competitiveness) of-activities-in-territorial-competitiveness.
25. Ashurov, M., Kurpayanidi, K., Oripov, D., Shakirova, Y., Muydinova, G. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference "INTERAGROMASH 2022". INTERAGROMASH 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5\\_167](https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167)
26. Ashurov, M. S. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion modelga o'tishining ayrim yo'nalishlari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023., 93-99 б. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N12>
27. Ашуров, М.С. National innovation system: methodological aspects. // Экономика и предпринимательство, № 9, 2023 г., стр. 408-415
28. Ashurov, M. S. O'zbekistonda innovatsion faoliyat holati va uni rivojlantirish omillarini baholash qo'qon universiteti xabarnomasi. ilmiy-elektron jurnali -№ 8 -2023., 55-57 б. DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.803>

